

ILM-FAN VA INNOVATSIYA

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ILM-FAN VA INNOVATSIYA»»NOMLI № 21-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

**INNOVATIVE
ACADEMY**

MUALLIF DISKURSIV SHAXSINING SARLAVHA VA EPIGRAF VOSITASIDA NAMOYON BO'LISHI

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13285192>

Badiiy matnni kognitiv tahlil etish alohida e'tiborni talab qilib, asarning eng muhim detallari sanaluvchi sarlavha va epigraf tadqiqi eng muhim jihatlaridan biri sanaladi. Zero, muallif diskursiv shaxsi aynan sarlavha hamda epigraf vositasida nafaqat o'zining individual dunyo manzarasi va qarashlarini namoyon etishi, balki vaziyatga munosabatini ham aks ettirishi mumkin. Shuningdek, sarlavha va epigraf badiiy matn mazmuni xususida ilk tasavvur hosil qilishda ham ahamiyatli sanalib, e'tiborni tortish va mushohadaga chorlash kabi o'ziga xosliklarga ega hisoblanadi. Quyida keltirilgan badiiy matnlar tahlili ushbu xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Xususan, o'zbek badiiy adabiyotida Said Ahmad asarlari ham sarlavhalarining o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Xususan, "Qorako'z Majnun" hikoyasining sarlavhasi o'ziga xos mazmunga ega bo'lib, muallif insonlarning ma'nan o'limi uning jismonan o'limidan ayanchliroq ekanligiga ishora qilishni maqsad qilgandek tuyuladi. Hikoya tili sodda, tushunarli, hech qanday murakkab bo'yoqlarsiz yoritilgan bo'lsa-da, bir muncha o'ylantiradigan, bir muncha achinish hissi beradigan tarzda ifodalangan. Ushbu hikoyaning bosh qahramoni ("it" obrazi) Qorako'z bo'lib, itga "majnun" nomining berilishi uning "marjabozlikka" borishi bilan izohlanadi. Shuningdek muallif o'zga dindagi qizga uylanib, ham oilasidan, ham e'tiqodidan kechgan Bo'rixon va "marjabozlikka" borsa-da, Saodat ayaga sodiq Qorako'zni bir-biriga naqadar mahorat bilan zidlaganini asarni o'qish davomida anglab yetish mumkin.

Shu payt to'rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o'q uzdi. Qorako'z vangillab yonboshiga ag'darildi. Orqa oyog'ini bir-ikki silkitib, jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

«...Qorako'z o'lmagur, Majnuningina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma'shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko'rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko'ray...»

Qorako'z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha, jonsiz yotardi.

Aksariyat badiiy asarlardan farqli ravishda muallif "Qorako'z Majnun" hikoyasining tom ma'noda kulminatsion nuqtasini, ya'ni itning o'limini asar so'nggida yoritib beradi va bu kitobxon qalbini jumbushga keltirmay qolmaydi. Shunisi ahamiyatliki, asarning asosiy qahramoni it obrazi ekanligini kitobxon muallif tomonidan ifodalangan epigrafdan ham osongina anglash mumkin:

"Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar".

(Baqara surasi, 217-oyat)

Yuqorida keltirilgan epigraf bevosita badiiy matnda ask ettirilgan asar qahramoni Bo'rixonning holati (*o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa*) tasviriga ishora sifatida keltirilgan bo'lib, muallif diskursiv shaxsi tomonidan muqaddas kitobdan olingan iqtibosning

qo'llanishi badiiy matnning ta'sirchanligini oshirishdan tashqari, muallifning vaziyatga nisbatan munosabatini ham aks ettirish ko'zda tutilgan.

“Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «As'hobi Kahfning vafodor itidir”.

(Al-jome al-Kabir.)

Badiiy asarda it to'g'risida keltirilgan epigraf uning vafodorligi qanchalik tahsinga loyiqqligini (*Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri*) ifodalashdan tashqari hayvon bo'lsa-da itning o'z xo'jayiniga doimo sodiqligi hamda Bo'rixonning o'z dinidan, vatanidan, hattoki yaqinlaridan osongina voz kechishi o'rtasidagi qarama-qarshilikning aks ettirilgani badiiy matnda binarlik yuzaga kelishining yaqqol misoli bo'la oladi.

Asardagi dastlabki epigraf diniy e'tiqod haqida bo'lib, Bo'rixonning nafaqat osongina o'z e'tiqodidan voz kechishi, balki otasining g'ururi, onasining mehri va obro'-e'tiboridan bir lahzada kechishiga ishora qilsa, keyingisi qanchalik daydib yurmasin, qanchalik oshiq bo'lmasin baribir o'z egasining yoniga, unga non-tuz bergan joyiga qaytib keladigan itni nazarda tutadi. Bu mazmunni asar davomida muallif tomonidan aks ettirilgan quyidagi ishoralar ham isbotlaydi:

- *O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga xudodan insof tiladi.*
- *Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan¹.*

Shuni eslatib o'tish joizki, har qanday asardagi ilk jumla muloqotning ibtidosi bo'lib, muallif tomonidan tanlangan qahramon hamda kitobxon o'rtasida g'oyibona uchrashuv vazifasini bajaradi. Asarning sarlavhasi, undagi epigraf hamda yoritiladigan muammolar borasidagi ilk taassurot keyingi bosqichga ko'tarilish, faollikni jadallashtirish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Ahamiyatlisi, muallif diskursiv shaxsi muayyan nasriy asarlarda she'r shaklidagi epigrafdan turli maqsadlarda foydalanishi mumkinligini kuzatish mumkin. Jumladan, Abdulla Qahhorning “Mahalla” hikoyasida Erkin Vohidov qalamiga mansub quyidagi she'riy parcha epigraf sifatida tanlangan:

*Inson bilan tirikdir inson,
Muhabbatdan hayotning boshi.
Odamzotga baxsh etadi jon
Odamlarning mehr quyoshi.*

Muallif diskursiv shaxsi yuqoridagi epigraf orqali asarning markaziy g'oyasini aks ettirish, badiiy matnning mazmuni haqida dastlabki tasavvurni hosil qilish bilan birga asarning estetik qiymatini oshirish orqali e'tiborni jalb etishni maqsad qilganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan farqli ravishda “Nurli cho'qqilar” hikoyasida epigraf sifatida keltirilgan Abdulla Oripovning quyidagi she'riy satrlari chuqur mushohadaga undashdan tashqari muallifga xos individual dunyo manzarasini aks ettirishga xizmat qilgan:

*Goh yer mehrini o'ylarkan,
Esga tushar dorning soyog'i;
Ajab hikmat, odam o'larkan
Uzilganda yerdan oyog'i.*

¹ S.Ahmad. Qorako'z majnun. – T.: O'zbekiston, 2013. – 88-90b.

Bir qarashda muallif tomonidan tanlangan epigraf hamda sarlavha orasida o'zaro qarama-qarshi munosabat (cho'qqi, yer) mavjuddek tuyulsa-da, aslida sarlavha emas, balki epigraf badiiy matnning tub ma'nosini izohlashga xizmat qilgan. Chunki muallif badiiy matnda asarning bir qahramoni nurli cho'qqiga, borloq kelajakka intilish yo'lida kibrga berilgani oqibatida ayanchli holatga tushib qolgani, buning aksi o'laroq kamtarlik, oddiylik vositasida boshqasining haqiqiy baxt cho'qqisiga yetkanini tasvirlashni nazarda tutadi. Shu orqali pirovardida ham mazmun, ham kontekstda qarama-qarshilik kuzatilishi natijasida binarlik holati yuzaga keladi.

Shuningdek, ingliz adabiyotida qayta talqin etish (reframing) holati ham mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, G.K. Chestersonning "The Red Angel" (Qizil farishta) asaridan olingan jumlar aslida quyidagicha holatda bo'lgan:

Fairy tales do not tell children that dragons exist. Children already know that dragons exist. Fairy tales tell children that dragons can be killed.

Yuqoridagi fikrdan ruhlangan ingliz yozuvchisi Neil Geymen tomonidan "Coraline" asarida epigraf sifatida tasodifiy kamchilik sababli quyidagicha keltiriladi:

Fairy tales are more than true: not because they tell us that dragons exist, but because they tell us that dragons can be beaten.

Badiy asarga epigraf sifatida tanlangan jumalarning asosiy g'oyasi saqlangan bo'lishiga qaramasdan kichik o'zgarishlar yuz berganini anglash mumkin. Shuningdek, ertaklar haqida yozilgan fikrning boshqa badiiy matnning, ya'ni hikoya janriga xos asarning mazmuni ochib berishga yordam beruvchi epigraf sifatini tanlanishi qayta tahlil (reframing) holatini yuzaga keltirgan.

Amalga oshirgan tahlillarimiz davomida bir necha asar uchun bir xil epigrafning tanlab olinishi holatlarini ham kuzatdik. Xususan, Abdulla Qahhorning "Qayg'ular" hikoyasida quyidagi latifa epigraf sifatida keltiriladi:

- *Nega mening boshimni qashlaysiz?*
- *Men o'zimning boshim debman.*

Yuqorida nomi keltirilgan hikoya juda qisqa bo'lib, asosan maishiy hayotda duch kelish mumkin bo'lgan holat tasviri namoyon bo'ladi. Muallif diskursiv shaxsi tomonidan epigrafda latifa orqali satirik tarzda achchiq haqiqatni aks ettirish maqsad qilinadi. Bundan farqli ravishda Omon Muxtorning tarixiy voqelar bayoni tasvirlangan "Ayollar mamlakati va saltanati" romanida ham aynan ushbu latifa epigraf sifatida keltirgan. Romanning asl maqsadi tarixiy voqealarni zamonaviy hayotga ko'chgan shaklda aks ettirish orqali tarixning takrorlanishiga ishora qilish bo'lib, boshqa asardagi epigrafning ham aynan takror holatda qaysi manbaga murojat qilinganini keltirish (*Eski latifa. Abdulla Qahhordan.*) bilan ifodalanishi muallifning asl maqsadini yanada aniqroq ochib berishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, bir necha asar uchun tanlangan bir xil epigraf asarlar o'rtasidagi bog'liqlik, mazmun jihatdan yaqinlikni anglatga, boshqa asardan olingan iqtibosning epigraf tarzida aks etishi badiiy matn haqida tasavvur hosil qilishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, badiiy matn davomida vaziyatlar o'rtasidagi nomutanosiblikning yuzaga kelishi natijasida asar uchun tanlangan epigraf binarlik hodisasini yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

References:

1. S. Ahmad. Qorako'z majnun. – T.: O'zbekiston, 2013. – 104b.

2. Abdulla Qahhor. Mahalla. Hikoya
3. Omon Muxtor. Ayollar mamlakati va saltanati. Roman.



INNOVATIVE
ACADEMY

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ
SECTION 1. ARTICLES FROM CENTRAL ASIA

1.	NOGIRONLIGI BO'LGAN AYOL-QIZLAR DAVLAT HIMOYASIDA Raximova Mohira Dilshod qizi	4
2.	O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI Sobirova Dilfuza Azimjonovna	7
3.	IMPACT OF E-COMMERCE ON INTERNATIONAL TRADE DYNAMICS Sirajiddinov Nishanbay, Norkobilov Akobir	9
4.	XX ASRDA QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING ETNODEMOGRAFIK HOLATINI O'RGANILISHI VA TADQIQ ETILISHI F.Sh.Salayev	13
5.	NUTQ AKTINI ASOSLOVCHI QOIDALAR MAJIDOVA MAFTUNA MUROD QIZI	17
6.	АБДОМИНАЛЬНЫЙ ТУБЕРКУЛЕЗ Д.С.Турдиматов, И.Х.Холматов	20
7.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI: MAQSAD VA VAZIFALAR Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li	26
8.	АСЕКТЫ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ОСТРОГО БИЛИАРНОГО ПАНКРЕАТИТА Хамроев О.З., Дусияров М.М., Акбаров М.М., Хужабаев С.Т.	31
9.	LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY ASOSLARI Djuraeva Madina Baxromovna	34
10.	HARBIY NASHRLARNING QIZIL ARMIYAGA MAHALLIY AHOLINI JALB QILISHDAGI G'OYAVIY-MAFKURAVIY AHAMIYATI Muxamadiyeva Laziza Nizomovna	36
11.	MUALLIF DISKURSIV SHAXSINING SARLAVHA VA EPIGRAF VOSITASIDA NAMOYON BO'LISHI Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi	41
12.	KUCHLI SHO'RLANGAN VA SHO'RXOK TUPROQLARDAN SUN'IY FOYDALANIB POLIZ EKINLARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI Norqulov Usmonqul, Ergashev Iftixor Sultonovich	45
13.	ШИРИН ҚАЛАМПИРНИ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА БОТАНИК ТАВСИФЛАРИ А.Н.Мамаюсупов	50
14.	FOROBIY ASARLARIDA SHAXS MUAMMOSI VAUNING PSIXIK DUNYOSI Rejebbayeva Aygul Zokirboy qizi	54

15.	THE IMPORTANCE OF CHOOSING METHODS IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE Umida Makhsimova	58
16.	TALABALARDA POZITIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIKPSIXOLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna	60
17.	BAHORGI MAVSUMDA OLMANING FENOLOGIK FAZALARINI KUZATISH Uzakbergenov Ulugbek Tanatar uli, Qaljanov Qilishbay Erejepovich	65
18.	O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA PARAMIOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISH DOIRASI Abdusamatova Nozanin Azim qizi	69
19.	INGICHKA TOLALI G'O'ZA NAVLARINI PARVARISHLASH ZARURATI Avazova Muhayyo Ashurali qizi	73
20.	KONLARDA KON BOSIMI VA SUV SIZIB CHIQISH EHTIMOLIY SABABLARINI O'RGANISH Nomdorov Rustam Uralovich, G'olibjon Jalilov Bahodir o'g'li	75
21.	8-СИНФДА “КУНТУҒМИШ” ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ Нурбоев Ширинбек	79
22.	ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ДУАЛ (ИККИ ТОМОНЛАМА) ЎҚИТИШ Равшанов Собир Маркаевич	85
23.	BOSHLANG'ICH 1-2-SINFLARDA DARSLARNI FANLARARO ABSTSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB TASHKIL QILISH O'QUVCHILAR KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA Xudayberganov G'.Q.	88
24.	MCHJLARGA MUQOBIL MOLIVAVIY RESUSRLARNI JALB ETISHDA XORIJIY TAJRIBANING HUQUQIY JIHATLARI DILFUZA MIRADHAMOVA	91
25.	ISHLOV BERISH REJIMLARINI HISOBLASH VA TAYINLASH Abduxakim Nigmatovich Abdullayev	98
26.	КЕСАРЕВО СЕЧЕНИЕ ИСТОРИЯ И ПОСЛЕДНИЕ ИННОВАЦИИ Худоярова Дилдора Рахимовна, Туракулова Шахноза Эшматовна, Шопулотова Зарина Абдумуниновна	104
27.	ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОЙ КОНСЕНСУС ҚОИДАЛАРИ ВА УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ Шодмонова Шахноза Дадахужаевна	109
28.	UMUMXALQ TILIDAN OLINGAN AXBOROT TEXNOLOGIYA	114

	TERMINLARI Oydina Abdulboqiyeva	
29.	BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA PORTRET RANGTASVIRI METODINING O'RNI VA AHAMIYATI Norqulova Dildor Uchkunovna	117
30.	"ENHANCING PARLIAMENTARY OVERSIGHT IN UZBEKISTAN" Azamat Norov	122
31.	РАННИХ ПРЕДИКТОРОВ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ ИСХОДОВ У БОЛЬНЫХ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ОСЛОЖНЕННЫМ ГНОЙНО – СЕПТИЧЕСКИМИ ПОРАЖЕНИЯМИ МЯГКИХ ТКАНЕЙ Одилова Турсуной Саматкуловна, Узakov Джамшир Касимович	129
32.	ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ ПРИ КАРДИОРЕНАЛЬНОМ СИНДРОМЕ Яхёева Фируза Обидовна	131
33.	ЗНАЧЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВА БИОЭТАНОЛА Джамалов Зоҳид Зафарович, Шамшиев Жаъфар Абдусалимович, Исламов Соҳиб Яхшибекович	133
34.	JAMOAVIY ISHLASHNING MENEJMENTDAGI O'RNI VA MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI Yuldashev Sirojiddin Zayniddin o'g'li	137
35.	KICHIK VA O'RTA BIZNESLARDA STRATEGIK MENEJMENTNING DOLZARBLIGI VA ISTIQBOLLARI Yuldashev Sirojiddin Zayniddin o'g'li	140
36.	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENT STRATEGIYALARINING O'ZGARISHI Yuldashev Sirojiddin Zayniddin o'g'li	143
37.	BOJXONA BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH: SAMARADORLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI Nurbek Raxmatullaev	146
38.	QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHINING ISHLOVCHILAR MEHNATI BILAN BOG'LIQ KO'RSATKICHLARI TAHLILI Utkirov Anvar Utkirovich	149
39.	ХОЖАМНАЗАР ХУВАЙДО ЯШАГАН ДАВРНИНГ ИЖТИМОЙ – СИЁСИЙ ВА АДАБИЙ МУҲИТИ Анкабаева Моҳира Мурадовна	153
40.	"ЗЕВАРХОН" ДОСТОНИДА АРАБЧА СЎЗЛАР Г.С.Қодирова	158
41.	ПРОБЛЕМЫ, УГРОЖАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОСТОЯНИЕ И	161

ПЕРСПЕКТИВЫ

Шерманов Бекназар Ортикович

INNOVATIVE
ACADEMY